

**INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA
TIJORAT BANKLARINING AHAMIYATI****THE ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN FINANCING
INVESTMENT PROJECTS*****Xodjajev Azizbek
Shavkatovich****“O‘zmilliybank” AJ. E-mail: RShukurov@nbu.uz***Annotatsiya
Abstract**

Uzb. - Mazkur maqolada investitsion loyihalar hamda ularning tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilishiga oid tushunchalar to‘liq o‘rganilgan, shuningdek bunga oid mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiy barqarorligining asosiy kafolatlaridan biri sifatida investitsion loyihalar ko‘riladigan bo‘lsa, uning rivojlanishining asosiy omili sifatida tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish jarayoni turadi. Tadqiqot doirasida dunyoning rivojlangan mamlakatlarining transmilliy banklari – Bank of America, Paribasbank va O‘zbekiston Respublikasining yirik aksiyadorlik tijorat banklari O‘zmilliybank, Asakabank hamda Sanoatqurilishbanklarining tahliliy ma‘lumotlari o‘rganilib, ularning investitsion portfeli va raqobatbardoshlik darajasi tahlili amalga oshirilgan.

Eng. - This article comprehensively examines the concepts of investment projects and their financing by commercial banks, as well as analyzes the opinions of domestic and foreign scholars on this matter. If investment projects are considered one of the primary guarantees of a country’s economic stability, the primary factor in its development is the process of financing by commercial banks. Within the framework of the study, analytical data from the world’s developed multinational banks—Bank of America, Paribasbank, and the largest joint-stock commercial banks of the Republic of Uzbekistan—Uznatsbank, Asakabank, and Sanoatkurilishbank—were studied, and an analysis of their investment portfolios and competitiveness levels was conducted.

**Kalit so‘zlar:
Keywords:**

❖ *bank, investitsiya, portfel, rentabellik, foiz, kredit, raqobatbardoshlik, passiv, depozit, qimmatli qog‘oz.*
❖ *bank, investment, portfolio, yield, interest, credit, competitiveness, liability, deposit, security.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi

qarorida Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni

qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish kabi ulugʻvor maqsadlar keltirib oʻtilgan. Shuning bilan bir qatorda, istiqbolli loyihalarni saralab olishda, xorijiy kredit liniyalari orqali davlat kafolati asosida qarz mablagʻlarini jalb etishda hamda ular asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklari faol ishtirok etishi va alohida mexanizmini yaratishi vazifalari keltirib oʻtilgan [1].

2025-yilda Toshkent shahrida oʻtkazilgan "Toshkent xalqaro investitsiya forumi-2025"da Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan "Yangi Oʻzbekiston - investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati" tamoyili asosida, 2030-yilga borib, Oʻzbekistonning kredit reytingini "investitsion" darajaga olib chiqish va YaIM miqdorini 200 milliard dollarga yetkazish kabi ulugʻvor vazifalar yuklatildi [2].

Yuqorida qayd etilgan holatlar mamlakat miqyosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari oʻrni va bunda banklar moliyaviy barqarorligiga erishish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Hozirgi davrda investitsiya loyihalariga bir qator taʼriflar berish mumkin. Masalan, M. Rimer talqiniga koʻra, investitsiya loyahasini yaratish va amalga oshirish bilan bogʻliq iqtisodiy jarayonlarni bajarish nuqtayi nazaridan mazkur loyiha «pul mablagʻlarining vaqt boʻyicha taqsimlangan tushumlari va xarajatlari, yaʼni real pul oqimlariga oid moliyaviy operatsiyalar modeli hisoblanadi».

Investitsiya loyahasining moliyaviy jihatdan amalga oshirilishi uchun doimiy ravishda hisob-kitob ishlarini olib borish zarur. Bunda har bir hisob-kitob bosqichida jami pul oqimining (operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyatdan kelib chiquvchi oqimlar yigʻindisi) saldosi hamda jamgʻarilgan saldosi musbat boʻlishi talab etiladi [3].

Darhaqiqat, har qanday investitsiya loyihasi vaqt davomida tegishli moliyalashtirishlar mahsulidir. Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi hamda iqtisodiyot tarmogʻiga oʻz natijasini qoʻshishgacha boʻlgan davrda loyihaga barqaror moliyalashtirish manbaasi zarur boʻladi. Bunda xorijlik investorlar mablagʻlari yoki tijorat banklari resurslaridan foydalaniladi.

O. Lavrushin tijorat banking investitsion kreditlariga taʼrif beradi: "Investitsion kredit — bu qarz oluvchi tomonidan amalga oshirish uchun taklif etilgan investitsiya loyahasini moliyalashtirish maqsadida kreditor va qarz oluvchi oʻrtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Investitsion kreditlash jarayonida kreditor (bank) qaytarishlilik, muddatlilik va toʻlovlilik tamoyillari asosida qarz oluvchiga (yuridik yoki jismoniy shaxsga) pul mablagʻlarini taqdim etadi. Bu esa kredit mablagʻlari shartnomada belgilangan muddatda toʻliq qaytarilishi, shuningdek, kreditdan foydalanganlik uchun qarz oluvchi tomonidan foiz toʻlovlari amalga oshirilishi lozimligini anglatadi" [4].

Mazkur taʼrifda tijorat banking investitsion krediti toʻgʻrisidagi eng sodda va qulay taʼrif berilgan boʻlib, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklari Markaziy bank tomonidan oʻrnatilgan prudensial normativlarni bajarishi va bu orqali oʻz likvidiligi va moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlarini saqlab qolishi lozim.

I. Koxning xulosasiga koʻra, loyihaviy investitsiyalash — bu investor ixtiyorida mavjud boʻlgan barcha oʻz va (yoki) jalb qilingan moliyaviy hamda boshqa resurslarni yagona investitsiya obyektiga (loyihaga) yoʻnaltirishni nazarda tutuvchi investitsiyalash shaklidir. Portfelli investitsiyalash esa investitsiya qilinayotgan mablagʻlarning umumiy hajmini bir nechta investitsiya obyektlari oʻrtasida majburiy va rejalashtirilgan tarzda taqsimlashga

asoslangan investitsiyalash usuli hisoblanadi [5].


Yuqoridagi iqtisodchi olimning fikrlarini O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi uchun ahamiyati shundaki, banklarimiz tomonidan risklarni minimallashtirish va daromad miqdorini oshirish maqsadida loyihalarni moliyalashtirishda portfelli investitsiyalash usulidan foydalaniladi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim B. Mamatov va boshqalarning fikricha, "... loyihaviy moliyalashtirishda turliinvestor va kreditorlarning mablag‘lari ishtirok etib, mablag‘larning sindikatlashuvi ro‘y beradi. Shu jihatdan ham loyihaviy moliyalashtirishni sindikatlashgan kreditlashtirish, deb atashimiz ham mumkin. Hozirda yevrokredit bozorida harakat qiluvchi bank sindikati va konsorsiumlarining loyihalarni moliyalashtirishdagi roli kundan kunga o‘sib

bormoqda. Mamlakatimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ham yevrokreditlar va boshqa rivojlangan xorij banklarining kreditlari, xorijiy mablag‘lari, respublika aksiyadorlik tijorat va xususiy banklarining kreditlari ishtirok etmoqda" [6].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dunyo iqtisodiyotida istiqbolli hamda davlat ahamiyatiga molik investitsion loyihalar asosan tijorat bnaklarining investitsion kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil etadi, shundan bank investitsiyalari miqdori 111 milliard AQSh dollari miqdoridagi aktivlarni qamrab olgan hamda bozor barqaror ravishda kengayib, o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati (CAGR) taxminan 8 foizni tashkil etmoqda [7].



1-rasm. Deutsche Bank (GFR), Bank of America banki (AQSH) va BNP Paribas bankida (Fransiya) jami aktivlari tarkibidagi investitsiya operatsiyalari miqdor darajasi, foizda [7]

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki:

- Deutsche Bankda investitsiya faolligini barqaror ravishda oshirib bormoqda. Aktivlar tarkibidagi ulush 2021-yildagi 4,4 foizdan 2025-yilga kelib 6,1 foizgacha ko‘tarilishi holati kuzatilgan. Bu esa, uning raqobatbardoshligini

ta’minlash nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

- Bank of America AQShning eng yirik banklaridan biri sifatida investitsiya operatsiyalarida yuqori salmoqni saqlab qolgan (8,5 foiz - 9,4 foiz atrofida). 2024-yilda biroz

pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2025-yilda yana o'sish tendensiyasiga qaytgan;

- Yevropaning ushbu yetakchi BNP Paribas bankida 2024-yilda keskin sakrash kuzatilgan (4,9 foizdan 9,2 foizga). Bu asosan strategik aktivlarni qayta taqsimlash va investitsiya portfelini kengaytirish hisobiga amalga oshgan hamda 2025-yilda ham ushbu yuqori daraja saqlanib qolmoqda. Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida tijorat banklarining investitsion amaliyotlar uchun resurs barqarorligini ta'minlashning muhim metodologik jihatlardan biri bo'lib, banklarning oddiy aksiyalarining investitsion jozibadorligini ta'minlash orqali ularning bozor baholarini yuqori bo'lishiga erishilganligi hisoblanadi.

Investitsion loyihalarni uzoq muddatli va barqaror ravishda moliyalashtirishda eng

avvalo tijorat banklari moliyaviy jihatdan barqaror va likvidlilik ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishi lozim. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun bir vaqtning o'zida bir nechta ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ana shunday muhim ko'rsatkichlardan biri – bu bank aktivlarining rentabelligi ko'rsatkichidir. Ushbu ko'rsatkich sof foydaning bank aktivlarining jami summasiga nisbatan darajasini ko'rsatadi.

Sof foizli marja ko'rsatkichini hisoblash uchun sof foizli daromad summasi (foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o'rtasidagi farq summasi) brutto aktivlar summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi. Ushbu ko'rsatkichning xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajasi 4,5 foizni tashkil etadi.

1-jadval

Deutsche Bank (GFR), Bank of America banki (AQSh) va BNP Paribas bankida (Fransiya) sof foizli marjaning darajasi, foizda*

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Deutsche Bank	0,9	0,8	1,0	1,0	0,9
Bank of America banki	1,5	1,4	1,7	1,8	1,7
BNP Paribas	0,8	0,7	0,8	0,7	1,2

*Jadval muallif tomonidan Deutsche Bank, Bank of America banki va BNP Paribas bankning yillik hisobotlarining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki:


- Deutsche Bankda sof foizli marjaning darajasi 2020-2024-yillarda barqaror darajada saqlanib qolgani holda, 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 0,1 foizli punktga oshgan (Deutsche Bankda sof foizli marjaning darajasini 2023-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi mazkur davrda sof foizli daromadning o'sish sur'atini brutto aktivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi);

- Bank of America bankida regulyativ kapitalning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2020-2024-yillarda 8,5 foizdan past bo'lmagan

barqaror darajada bo'lgan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

- BNP Paribas bankida sof foizli marjaning darajas 2021-2023-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, aktivlarning rentabellik darajasi tijorat banklarining moliyavi barqarorligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.



2-rasm. TIF Milliy banki, Asakabank va Sanoatqurilishbankda brutto aktivlarida investitsiya operatsiyalari salmog'i¹, foizda

2-rasmdan aniq ko'ringayki:

- TIF Milliy banki aktivlari tarkibida investitsiya operatsiyalarining salmog'i 2024-yilda va 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada o'sgan., 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 41,1 foizli punktga oshgan;

- Asakabankda brutto aktivlarida investitsiya operatsiyalari salmog'i 2021-2022-yillarda barqaror o'sgan holda, 2023-2024-yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, bank tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish nuqtayi-nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

- Sanoatqurilishbankda aktivlarining tarkibida investitsiya operatsiyalarining salmog'i darajasi tahlil davrida nisbatan barqaror bo'lgani holati kuztilsada, 2024-yilda 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtayi-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tahlillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsion operatsiyalari o'sish

tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsada, xorijiy kredit tashkilotlarining ushbu ko'rsatkichlari bilan solishtirganda kam ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining rolini yaxshilash bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- har qanday investitsiya loyihasi vaqt davomida tegishli moliyalashtirishlar mahsulidir. Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi hamda iqtisodiyot tarmog'iga o'z natijasini qo'shishgacha bo'lgan davrda loyihaga barqaror moliyalashtirish manbaasi zarur bo'ladi;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklari Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan prudensial normativlarni bajarishi va bu orqali o'z likvidiligi va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini saqlab qolishi lozim;

- O'zbekiston Respublikasi bank tizimi tomonidan risklarni minimallashtirish va

¹TIF Milliy banki, Asakabank va Sanoatqurilishbankning yillik hisobotlarining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

daromad miqdorini oshirish maqsadida loyihalarni moliyalashtirishda portfelli investitsiyalash usulidan foydalaniladi.

Fikrimizcha, respublikamizda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining ahamiyatini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman:

1. Bank tizimida sindikatlangan kreditlashning raqamli platformasini joriy etish lozim. Yirik iqtisodiy va infratuzilmaviy investitsion loyihalarning riski bitta bank uchun juda yuqorilik qiladi. Bu taklif bir nechta bankning moliyaviy resurslarini blokcheyn texnologiyasi asosida yagona raqamli platformada birlashtirishni nazarda tutadi. Bu orqali esa banklar o'rtasida loyiha risklari va likvidlilik taqsimlanadi (diversifikatsiya

qilinadi). Raqamli smart-kontraktlar orqali loyihaning borishi va pul oqimlari avtomatik nazorat qilinadi, bu esa banklarning yirik loyihalarga qo'rqmasdan mablag' tikishiga zamin yaratadi.

2. Metsanin moliyalashtirish instrumentini bank amaliyotiga qonuniy tatbiq etish. Bu oddiy kredit va ustav kapitaliga investitsiya kiritish o'rtasidagi gibriddir. Bank loyihaga pul ajratadi, agar loyiha egasi pulni qaytara olmasa yoki kelishuvga ko'ra, ushbu qarzdorlik avtomat ravishda bankning loyihadagi ulushiga (aksiyasiga) aylanadi. Bu orqali tijorat banklari kredit portfeli sifati yomonlashishiga yo'l qo'ymaydi va tadbirkorlik subyektlari uchun ishonchli hamkorga ega bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori//QHMMB: 30.12.2021-y., 07/21/72/1225-son. www.lex.uz
2. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi". <https://president.uz/oz/lists/view/8203>
3. Экономическая оценка инвестиций / под ред. М. Римера. – СПб.: Пултер, 2009.
4. Лаврушин О.И. Банковские операции. – М.: КноРус, 2018. – 288 с.
5. Кох И.А. Портфельное и проектное инвестирование как методы осуществления инвестиционной деятельности // Финансы и кредит. – 2008. – № 24. – С. 41.
6. В. Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. // Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2014. – 456-457 bb.
7. Deutsche Bankning rasmiy veb sayti - <https://www.db.com>